

Oilada bolaning emotsional, axloqiy va intellektual tarbiyasi shaxsiy ibrat, aytilgan so'z, shaxsiy munosabat, shaxsiy fikr, amaliy ish, hamkorlikdagi muloqot va bas, munozara, muhokama, turli oilaviy tadbirlarni uyushtirish, o'zaro ko'mak, o'zgalarni anglash tajribasi v.b. lar orqali shakllantiriladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha oilada o'smirlar tolerantlik tafakkurini shakllantirish samaradorligi ota-onalarning pedagogik qobiliyati bilan chambarchas bog'liq.

Ya'ni, ota-ona shaxsiyati va uning ijobiy namoyon bo'lishi; ota-onadagi yuksak axloqiylik va ma'naviyat; ota-onadagi ijobiy hayotiy tajribaning mavjudligi; ota-onadagi yetarli pedagogik bilim va malakalarning mavjudligi; ota-onadagi turli vaziyatlarga nisbatan tanqidiy munosabatning mavjudligi muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, ota-onaning pedagogik madaniyatiga xos bo'lgan: nutq va axloq madaniyati; kommunikativlik; kreativlik; pertseptivlik; tashkilotchilik; reflektivlik kabi tamoyillarning roli kattadir.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, birinchidan, oila – jamiyatning muhim hujayrasi bo'lib, jamiyatning normal rivojlanishi, aholining ko'payishini, yosh avlodning jismoniy va ma'naviy tarbiyasini, insonning tabiiy ehtiyojlari – sevgi, muhabbat va muloqotni ta'minlaydi. Ikkinchidan, o'zbek xalqi oilaviy turmush, er-xotin munosabatlari, ularning vazifa va burchlari, sifat va fazilatlar aks etgan muqaddas diniy manbalar, o'zbek xalq og'zaki ijodi, Sharqning buyuk mutafakkirlari va ma'rifatparvar ziyolilari asarlarida qimmatli ma'lumotlar jamlangan. Ulardan hozirgi yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlashda va oilaviy turmush amaliyotida samarali foydalanish mumkin. Uchinchidan, bugungi kunda oila – o'zining tarbiya yo'nalishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'zaro uyg'unlik kasb etgan. O'z an'analarini avlodlarning boy tajribalari asosiga qurgan va ularni muntazam boyitib borishga odatlangan, sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitga ega bo'lgani natijasida har qanday ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitda ham o'zligini yo'qotmaydigan, o'z davri bilan hamisha hamnafas va hamkor oiladir. Odatda bunday oilada oilaviy munosabatlar to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lib, ota-ona va farzandlar, bobo-momolar va nabiralar o'rtasida bir-birini tushunish, anglash, hurmat qilish, o'zaro yordamlashish, mehr-muruvvat ko'rsatish tamoyillari uyg'unlik kasb etgan bo'ladi. Zamonaviy oilada, xuddi yetuk va fozil jamiyat kabi, bir tomonlama, dogmatik, haqiqat va taraqqiyotga zid, olg'a yurish uchun to'sqinlik qiladigan odat va intilishlar bo'lmaydi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Арипова Г. Оилада ўсмир ёшдаги болаларда толерантлик тафаккурини шакллантиришнинг педагогик асослари. -Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2010. – 128 б.
2. Арипова Г. Оилада болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда халқ педагогикасининг роли // Умидли кимёгар-2008. Илмий-техник анжумани мақолалар тўплами. II том. – Тошкент: ТКТИ, 2008. – Б.359-360.
3. Арипова Г. Оила иқтисоди – жамият кўзгуси // Техникавий ва ижтимоий-иқтисодий фанлар соҳаларининг муҳим масалалари. Тошкент Давлат техника университети. Тошкент кимё-технология институти. Республика Олий ўқув юртлараро илмий ишлар тўплами. - Тошкент: ТКТИ, 2009. – Б. 17-19.
4. Арипова Г. Оилада толерантликни шакллантириш // Бошланғич таълим.- Тошкент, 2010. – №11. – 4-5 б.
5. Арипова Г. Оилада ўсмир ёшдаги болаларда толерантликни шакллантиришнинг самарали шакл ва методлари // Халқ таълими. – Тошкент, 2010. – № 2. –Б.72-76.

Oynisa MUSURMANOVA,

pedagogika fanlari doktori, professor,

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi

“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining

Ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari,

Toshkent, O'zbekiston.

Gulnoza SOLIHOVA,

mustaqil tadqiqotchi, Toshkent, O'zbekiston

NOGIRON BOLALARNI IJTIMOYILASHTIRISHNING HUQUQIY-NAZARIY ASOSLARI

Maqolada nogironligi bo'lgan bolalarning ijtimoiylashtirishning huquqiy-nazariy asoslari tahlili keltirilgan. Shuningdek, mualliflar mamlakatimizda ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan o'z fikr va mulohazalarini aytib o'tgan.

Kalit so'zlar. Nogiron bola, ijtimoiylashtirish, ijtimoiy soha, huquqiy asos, insonparvarlik, nogironlarning huquqlarini himoya qilish

В статье представлен анализ правовых и теоретических основ социализации детей с ограниченными возможностями здоровья. Авторы также высказали свои мнения и комментарии по поводу проводимой работы по развитию социальной сферы в нашей стране.

Ключевые слова. Ребенок-инвалид, социализация, социальная сфера, правовая основа, гуманитарная, защита прав инвалидов.

The article presents the analysis of the legal and theoretical foundations of socialization of children with disabilities. The authors also expressed their views and comments on the work carried out on the development of the social sphere in our country.

Key words. Disabled child, socialization, social sphere, legal basis, humanitarian, protection of the rights of disabled people.

Bugungi kunda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishi ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'lib, unda belgilangan vazifalar mamlakatimizda insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligi, millatimizga xos mehr-shafqatning muhim qadriyat ekanligidan dalolat beradi. Jumladan, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash kabi vazifalar imkoniyati cheklangan bolalar ta'limi tizimini tubdan yaxshilashni, bu jarayonga innovatsion texnologiyalarni olib kirishni taqozo etmoqda. Nogironligi bolalar va o'smirlarning ta'limi milliy va xalqaro asoslarga egadir. Jumladan, xalqaro hujjatlar: "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" (1948 yil, Jeneva), Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Deklaratsiya (1975-yil), "Bola huquqlari to'g'risida Konventsiya", "Ta'lim barcha uchun" umumjahon Deklaratsiyasi" (1990 yil, Tayland), "Salamanka bayonoti" (1994 yil, Italiya), "Dakar deklaratsiyasi" (2000-yil, Dakar); milliy huquqiy me'yorlar: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (41-modda), "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (23-modda),

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” (1997 yil), Vazirlar Mahkamasining “Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv Markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi 419-sonli Qarori (2004 yil), “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun (2008 yil), Vazirlar Mahkamasining “Aqliy va jismoniy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta‘lim muassasalarini tashkil etish to‘g‘risida” gi 256-sonli (2011-yil, 13-sentyabr), “Umumiy o‘rta ta‘lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 140-sonli (2017 yil 15 mart), “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli (2017 yil 6 aprel) qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrda PF-5270-sonli “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni va boshqa hujjatlarda imkoniyati cheklangan bolalarning ta‘limi, reabilitatsiyasi, ijtimoiy munosabatlarda erkin, qulay va xavfsiz harakatlanishini ta‘minlashga qaratilgan huquqiy me‘yorlar belgilab qo‘yilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrda PF-5270-sonli Farmonida nogironlikning muayyan turlarini to‘liq yengib o‘tish imkonini beruvchi zamonaviy tibbiyot, ta‘lim va ijtimoiy texnologiyalardan, shu jumladan, rivojlanishdan ortda qolish, eshitish va ko‘rish qobiliyatining buzilishi, ijtimoiy-psixologik buzilishlarni erta aniqlash tizimidan foydalanishni kengaytirish vazifasi alohida belgilab qo‘yildi. Shuningdek, ushbu farmon ilovasi bilan tasdiqlangan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish hamda ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarni kuchaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi”da “nogiron” so‘zi o‘rniga “nogironligi bo‘lgan shaxs” atamasidan foydalanish tartibi yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 29-moddasida jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar va nogiron bolalar ular uchun maxsus ishlab chiqilgan ta‘lim dasturlari bo‘yicha ta‘lim muassasalarida o‘qish va tarbiyalanish hamda o‘z jismoniy, aqliy qobiliyatlari va xohishlariga mos bo‘lgan ta‘lim olish huquqiga egaligi belgilab qo‘yilgan.

Rivojlangan ijtimoiy soha ko‘rsatkichlaridan biri bu yaxshi ishlab chiqilgan va samarali ishlaydigan me‘yoriy-huquqiy bazadir. Ko‘lab xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga ega bo‘lgan deklaratsiyalar, qonunlar va qoidalar nogironlarning asosiy huquqlarini, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy choralarni, shuningdek, nogironlar uchun atrof-muhitning mavjudligini aniqlaydigan standartlarni belgilaydi. Har bir hujjatning o‘ziga xos tor yo‘nalishi borligiga qaramay, ularning umumiy maqsadi nogironlarning jamiyatimizning teng huquqli a‘zolari bo‘lishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishdir. Keling, nogironlarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi asosiy xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarni ko‘rib chiqaylik.

Birinchi marta nogironlarning huquqlari boshqa barcha qonunlar uchun muhim bo‘lgan hujjat – Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilandi. Uning asosiy tamoyillariga muvofiq, nogironlar fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning barcha turlaridan foydalanishlari, boshqa odamlar bilan teng sharoitda foydalanish huquqidan foydalanishlari mumkin. Bu qoida samarali ijtimoiy himoya tizimini qurishning asosiy tamoyilini – tenglik orqali erishish imkoniyatini belgilaydi.

1975-yil nogironlarning huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiyada kamsitishning har qanday shakliga yo‘l qo‘yilmasligi haqidagi qoidalar batafsilroq va to‘liqroq tuzilgan. Hujjatga ko‘ra, nogironlar har qanday istisnalar, farqlar va kamsitishlarsiz o‘z insoniy qadr-qimmatini hurmat qilish, tibbiy, funksional, ruhiy davolanish, o‘z salomatligi va jamiyatdagi mavqei tiklash huquqiga ega. Deklaratsiyaga muvofiq, aqli zaif odamlarga, nogironlarga har xil

faoliyat sohaslarida o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam berish va iloji boricha jamiyatning normal hayotiga qo‘shilishlariga yordam berish kafolatlangan.

Nogiron bolalarga nisbatan ularning muomala layoqati to‘g‘risidagi qoidalar yuqoridagi hujjatlar asosida tuzilgan. Avvalo, har qanday kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi haqida aytiladi. Shu bilan birga, bolalar umumiy qabul qilingan inson huquqlaridan tashqari, ularning tug‘ilishi, tarbiyalanishi va o‘qishi bilan bog‘liq o‘ziga xos huquqlarga ega. Masalan, Bola huquqlari deklaratsiyasiga muvofiq, qonun va boshqa yo‘llar bilan bolalarni alohida himoya bilan ta‘minlash, ularga jismoniy, aqliy, axloqiy, ma‘naviy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga imkon beradigan imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratish kerak.

Konvensiya faqatgina inson huquqlari sohasidagi mavjud xalqaro bitimlarni to‘ldiradi va nogironlarning qandaydir yangi huquqlarga ega bo‘lishini e‘tirof etmaydi. U faqat nogironlarning barcha inson huquqlaridan foydalanishlarida tengligiga rioya etilishi va ta‘minlanishida huquqiy nuqtai nazardan davlatlarning majburiyatlari va vazifalariga aniqlik kiritadi. Konvensiya nogironlar o‘z huquqlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun o‘zgartirishlar talab qilinadigan sohalarni, shuningdek, muntazam buziladigan huquqlarni himoya qilishni kuchaytirish zarur bo‘lgan sohalarni belgilaydi. Bundan tashqari, u barchaga hamma joyda qo‘llanishi kerak bo‘lgan eng kam me‘yorlarni belgilaydi va izchil harakatlar doiralarini o‘rnatadi.

Shunday qilib, yuqoridagilardan kelib chiqadiki, nogironlarning huquq layoqatining rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshdi. Ta‘kidlash joizki, qabul qilingan har bir akt ularga nisbatan har qanday kamsitishni taqiqlaydi va asosiy tamoyillar-tenglik va qadr-qimmatni mustahkamlaydi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda 700 mingdan ortiq nogironligi bo‘lgan shaxslar, ular- dan 100 mingdan ortig‘i 16 yoshgacha nogironligi bo‘lgan bolalardir. Qayd etilishicha, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarning tahliliga ko‘ra, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining tahlili qonun ijodkorligi faoliyatida ikki yo‘nalish — nogironlikning “ijtimoiy modeli” va “tibbiy modeli” tamoyillari mavjudligi haqida xulosa qilish imkonini beradi.

“Ijtimoiy model” nogironlikka nisbatan ijtimoiy yondashuvni mustahkamlab beradi va unga ko‘ra, inson sog‘lig‘i buzilishi sababli emas, balki, eng avvalo, u to‘qnash keladigan to‘siqlar tufayli nogironligi bo‘lgan shaxs hisoblanadi. Ayni vaqtda “tibbiy model” nogironlikni kasallik va mehnatga layoqatsizlik sifatida baholaydi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, hozirgi zamon bolasi ekologik ong, gigienik malakalar, iqtisodiy ko‘nikmalar va huquqiy savodxonlikka ega bo‘lmasa, mustaqil hayotda erkin xavfsiz harakatlanishi qiyin kechadi. Chunki tez rivojlanayotgan murakkab zamon shaxs oldiga qator talablarni qo‘ymoqdaki, bularsiz inson o‘z kelajagini, bu bilan bog‘liq ravishda oilasi farovonligini ta‘minlashi oson kechmaydi. Shuning uchun ham nogironligi bo‘lgan bolalarning ta‘limi va tarbiyasi masalasi davlat siyosatining alohida muhim yo‘nalishi sifatida qaraladi. Demak, maxsus ta‘lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish uchun hozirgi kunda dolzarb bo‘lgan tarbiya yo‘nalishlari va ularning mohiyati hamda maqsad va vazifalarini aniq anglamoq va amaliyotga zaruriy metodik tavsiyalar ishlab chiqmoq muhimdir.

Foydalanadigan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lish i kerak. T.: “O‘zbekiston”, 2017. —104-b.

2. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: "O'zbekiston", 2017.– 48-b.

3. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi". BMT. Bosh Assambleyasi 217 A (III) Rezolyutsiyasi, 1948, 10.12./ www.constitution.uz.

4. "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni(18.11.1991 y. 422-XII-son (Yangi tahriri))/"O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2008-yil, 29-30-son, 277-modda.

5. Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiya/ BMT Bosh Assambleyasining 1989-yil 20 noyabrda 44/25-qarori; O'zbekiston respublikasi oliy kengashining 1992 yil 9 dekabrda 757-XII-sonli "Bola huquqlari to'g'risidagi Konventsiyaga qo'shilish haqida"gi Qarori. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi "Adolat" huquqiy axborot markazi.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 7-sentyabrda 419-sonli "Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori./O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 36-son, 400-modda; 2006 y., 40-son, 396-modda; 2008 y., 52-son, 525-modda; 2009 y., 46-son, 498-modda; 2011 y., 24-son, 247-modda, 39-son, 399-modda; 2012 y., 26-27-son, 295-modda, 36-son, 412-modda; 2017 y., 25-son, 539-modda.

7. "Ijtimoiy himoya yili" davlat dasturi. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2007 yil, 4-6-sonlar, 39-modda.

8. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni./ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 y., 1-2-son, 1-modda, 2009 y., 52-son, 554-modda; 2016 y., 52-son, 597-modda; 2017 y., 24-son, 487-modda.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 13-sentyabrda "Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida"gi 256-sonli Qarori/ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-y., 37-son, 380-modda.

Zulayho MAXQAMOVA,
mustaqil izlanuvchi,
Toshkent, O'zbekiston

AYOLLARDA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING IMKONIYATLARI

Maqola ayollarni tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash masalalariga bag'ishlangan. Muallif ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilayotgan izchil sa'y-harakatlar bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Tadbirkorlik, ijtimoiylashtirish, faollik, gender tenglik, ehtiyojmand, xotin-qizlar, ta'lim va kasbiy ko'nikmalar.

Статья посвящена поддержке женского предпринимательства. Автор дает отзывы о предпринимаемых усилиях по поддержке женского предпринимательства.

Ключевые слова. Предпринимательство, социализация, активность, гендерное равенство, профессиональное сотрудничество, женщины, образование и профессиональные навыки.

The article is devoted to the support of women's entrepreneurship. The author gives feedback on ongoing efforts to support women's entrepreneurship.

Key words. Entrepreneurship, socialization, activity, gender equality, professional cooperation, women, education and professional skills.

So'nggi yillarda O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, oila institutini mustahkamlash, qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda, normativ-huquqiy baza yanada takomillashtirilmoqda. Xususan, gender tenglik bo'yicha institutsional asoslar ham kengaytirilib, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida yangi Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil qilindi, Respublikada va 14 ta hududiy Xotin-qizlar tadbirkorligi markazlari tashkil etildi. Jamiyat va davlat hayotida faolligi tashkilotchiligi, oilaning shakllanishi, farovonligini mustahkamlashga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo'shganligi uchun "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'sis etildi, "Sog'lom oila-sog'lom jamiyat" konsepsiyasi yaratildi.

Ayollar jamiyatning turli sohalarida faol ishtirok etib kelmoqdalar, shu jumladan, tadbirkorlik sohasida ham. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti munosabatlarining gender jihati o'ziga xos yo'nalish bo'lib, bunda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish nafaqat gender tenglikni ta'minlash, balki O'zbekistonning innovatsion iqtisodiyotini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, salomatligini mustahkamlash va eng muhimi, ular uchun munosib turmush sharoitini yaratish ijtimoiy sohaning muhim yo'nalishlaridandir. Shu bois, Prezidentimiz tomonidan mazkur yo'nalishni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Binobarin, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilayotgan izchil sa'y-harakatlar opa-singillarimizning ijtimoiy